



JAMIYATIMIZDA AYOLLAR IJTIMOYIY-IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Mirjavharova Feruzaxon Usmonjonovna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi maxsus

fan o'qituvchisi, 3-darajali yurist

Tel: +998943993001

Mirzavharovaferuzaxon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda ayollar ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishning ayrim masalalari ko'rib chiqilgan. Qonunchiligimizda xotin-qizlarga berilgan imtiyoz va imkoniyatlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xotin-qizlar, gender tengligi, ijtimoiy faollik, iqtisodiy erkinlik, ta'lim, kasb-xunar

XX asrning oxiri butun dunyo jamiyatida ayollarning sezilarli ravishda faollashuvi bilan ijtimoiy munosabatlar fonini butunlay o'gartirib yubordi. Iqtisodiyot dinamikasi, an'anaviy etnik institutlar, xulq-atvor shakllari, qadriyatlar, motivatsiyalar o'zgarishining o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'lishi barobarida, ayollarning o'zlarining an'anaviy rollarini bajarishlari muammosi tobora boshqacha mazmu kasb etmoqda. Ko'p sonli ayollarning mehnat bozoriga kirishi natijasida ayolning martaba, biznes va uydan tashqarida o'zini o'zi anglashining yangi yo'nalishlari vujudga keldi. Albatta, bu jaaryonlar jamiyatda ayollarning faoliyati sezilarli ravishda yuqorilishaiga sabab bo'ldi.

Dunyo iqtisodiyotidagi o'zgarishlar va kichik biznesning rivojlanishi ayollarga biznes olamida iqtisodiy tashabbus va salohiyatni rivojlantirish uchun o'z salohiyatlarini kashf qilish imkoniyatini berdi. Iqtisodiy taraqqiyot va tadbirkorlikning rivojlanishi ayollarga o'zlarining ijtimoiy funktsiyalarini sezilarli darajada kengaytirish, jamiyatda va iqtisodiy



faoliyatda boshqacha pozitsiyani egallash, bozor iqtisodiyoti ehtiyojlariga javob beradigan o'z biznesini ochish imkonini berdi. Bu o'z navbatida ko'plab bandlik muammolarini hal qildi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bugungi kunda ayollarning biznesdagi asosiy ishtiroki hayotda o'zini namoyon qilishning asosiy usullaridan biri bo'lib, moliyaviy ahvoldan tashqari, ijtimoiy mavqeini belgilashda asosiy ko'rsatgichlardan biri bo'lmoqda. Ushbu bosqichda muvaffaqiyatli karyera qurish yoki biznesni ko'rish zamonaviy jamiyatda erkaklar va ayollar uchun hayotdagi muvaffaqiyat va baxtni belgilovchi qadriyat sifatida qaraladi. Biroq, ayol faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, u hayotdagi ikkita asosiy sohani - biznes va oilani birlashtirishga intiladi, chunki ular ayol uchun bir xil ahamiyatga ega.

Ayollarning bisnezda yetarli darajada rivojlanishlari uchun sharoit yaratish sohaning ko'plab muammolariga o'ziga hos yechim bo'lishi mumkin. Hu nuqtai nazardan mamlakatimizda ayollarga berilayotgan imkoniyatlar ayni muddaodir.

O'zbekistonda ayollar uchun qonunchilikka ko'ra, ko'plab imtiyozlar yaratilgan. Quyida ularni ayrimlarini ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

“Yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish dasturlarini samarali amalga oshirish hamda ularning tadbirkorlik faoliyati uchun mikrokreditlar ajratish chora-tadbirlari to'g'risida”¹gi Hukumat qarori bilan Tadbirkorlik tashabbusiga ega jismoniy shaxslar, shu jumladan, yoshlar va xotin-qizlarga mikrokreditlar ajratish tartibi to'g'risidaginizom tasdiqlandi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.06.2021 yildagi 388-son



Nizomga ko'ra, tadbirkorlik tashabbusiga ega jismoniy shaxslar, shu jumladan, yoshlar va xotin-qizlar, shuningdek, mikrofirma va kichik korxona ta'sis etgan shaxslar (qarz oluvchilar) kredit olish uchun "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki yoki aksiyadorlik-tijorat Xalq bankiga elektron ariza bilan murojaat qiladi, **Xotin-qizlarga tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun 33 million so'mgacha kreditlar ajratiladi.**

Ushbu sohadagi ishlar samaradorligini yanada oshirish uchun Prezidentning 2019 yil 7 martda "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"²gi qarori [qabul qilindi.](#)

Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash, mehnat faoliyatini rag'batlantirish va odil sudlovga erishish darajasini oshirish maqsadida:

2019 yil 1 maydan:

- ayollar mehnatini muayyan soha yoki kasblarda qo'llash bo'yicha taqiqlar bekor qilindi;
- tavsiyaviy xarakterdagi ayollar sog'lig'iga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan soha yoki kasblar ro'yxati tasdiqlandi;
- bola parvarishlash ta'tilining kamida uch oyi ota tomonidan foydalanilgan taqdirda, ota yoki onadan biriga O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining [234-moddasi](#) tartibida qo'shimcha bir oy nafaqa to'lanadigan bola parvarishlash ta'tili beriladi;
- ikki yoshga to'lmagan farzandini tarbiyalovchi ota-onalarning biriga ularning ish paytidagi dam olish va ovqatlanish, bolani ovqatlantirish uchun beriladigan tanaffuslar hisobidan ish beruvchi bilan kelishgan holda kun davomida foydalaniladigan tanaffus vaqtini belgilash huquqi beriladi;

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.03.2019 yildagi PQ-4235-son



- ayollarning pensiya yoshiga to'lganligi yoki qonun hujjatlariga muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi vujudga kelganligi sababli ular bilan tuzilgan nomuayyan muddatli mehnat shartnomasini 60 yoshga to'lgunga qadar yoki muddatli mehnat shartnomasini muddati tugagunga qadar ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish taqiqlanadi;

- erkak va ayollar huquqlari tengligining buzilishi bilan bog'liq ishlarning sudlarda ko'rib chiqilishida ayollarga advokatlar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik xizmat uchun haq ularning xohishiga ko'ra davlat hisobidan qoplanadi.

Bundan tashqari, xotin-qizlarning bilim olishlariga ham aloxida e'tibor qaratilmoqda. Hukumat qarori bilan Oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o'qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi [nizom tasdiqlandi](#). Nizomga muvofiq, bunday tavsiyanomalar olgan ayollar olit ta'lim muassasalarida o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Tavsiyanoma oliy ma'lumot olish istagida bo'lgan xotin-qizlarga 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga beriladi.

Jamiyatimizda faol va tashabbuskor xotin-qizlar "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlanish amaliyoti joriy etildi. Ushbu nishonlar bilan

- jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko'rsatgan;
- o'zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishiga va farovonligi mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shgan;
- sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularni vatanparvarlik va istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, joylarda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish va milliy qadriyatlarimizni keng targ'ib etish borasida ibratli faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar taqdirlanadi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning faolligiga, gender tengligi masalalariga buqadar keng miqyosida e'tibor qaratilishi albatta o'z natijasini ko'rsatadi. Jamiyatimizda barcha



sohalarda ayollarning faolligi sezilarli darajada ko‘tariladi. Zero, ayol oilaning, jamiyatning quvvat manbaidir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.06.2021 yildagi 388-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.03.2019 yildagi PQ-4235-son
3. Raxmonova Mavluda Xasanovna Zamonaviy tadbirkor ayollarning ijtimoiy faolligi // SAI. 2022. №B3.
4. Shoirax Baxtiyor Qizi Begnazarova O‘zbekiston respublikasida ayollar mehnat faoliyatini muhofaza qilishning ahamiyati va ularga yaratilayotgan shart-sharoitlar // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. 2022. №5.